

O'ZBEKISTON BADIY AKADEMIYASI
KAMOLIDDIN BEHZOD NOMIDAGI MILLIY RASSOMLIK VA DIZAYN
INSTITUTI

“DIZAYN” FAKULTETI
“DIZAYN” KAFEDRASI

“Himoyaga ruxsat etilsin”

Dizayn fakultet dekani

R.Norchaev

« » 2016 yil

5111000 – Kasb ta’limi (5150900 – Dizayn (Inter’erni loyihalash)) bo’limi

081-12 guruh talabasi

Umarova Dilbar Xursanovnaning

Mavzelarda Bolalar Maydonchasi Dizayni va Interaktiv Rivojlantirish markazi
interyeri mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: Dizayn

Kafedrasi (dotsent, kattao’qituvchi)

_____ (Diplom rahbarning .f.i.o si)

“Himoyaga tavsiy aetilsin”

Dizayn kafedrasi mudiri

_____ N.R.Mannopova

« » _____ 2016 yil

Toshkent – 2016

~ 1 ~

Mazkur bitiruv malakaviy ishi “Dizayn” kafedrasid abajarilgan. “Dizayn” kafedrasida 201__ yildagi №-__ sonli majlisda hamda “Dizayn” fakultetining «__» ____201_ yildagi №-__ sonli fakultet Kengashida muhokama etilgan va himoyag atavsiya etilgan.

Taqrizchi:

Dizayn kafedrası (*dotsent, katta o'qituvchi*) (*Diplomrahbarningi.o.f*)

Bitiruv malakaviy ishi himoyasi 2016 yil «__» iyun soat ____ da Kamoliddin Behzod nomli Milliy rassomlik va dizayn institutida o'tkaziladi.
Manzil: MirzoUleg'bek tumani, Sodiq Azimov ko'chasi 35-uy.

O'ZBEKISTON BADIY AKADEMIYASI
KamoliddinBehzodnomidagiMilliyRassomlikvaDizaynInstituti

«Dizayn» fakulteti

«Dizayn» kafedrasi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu.....

.....

Bitiruvchi

/F.I.Sh. imzo/

Loyiharahbari

.....

/ F.I.Sh., ilmiydaraja,ilmiyunvon/

Kafedramudiri

.....

/ F.I.Sh., ilmiydaraja,ilmiyunvon/

Taqrizchi

.....

/ F.I.Sh., ilmiydaraja, ilmiyunvon, imzo/

Toshkent 2016

BITIRUV MALAKAVIY ISHINI BAJARISH BO‘YICHA TOPSHIRIQ

Talaba_____ ga

1. Loyiha mavzusi _____

2. Tugallangan loyihani topshirish muddati _____ <<>> 2016 y.

3. Tushuntirish xati mazmuni

a/ kirish

b/ xajmiy-rejaviy echimlari

v/ arxitekturaviy-konstruktiv qismi

g/ intererning kompozitsiya echimlari, rangli echimlari

d/ bezak ashyolari, interer elementlarining konstruktiv qismlari

e/ adabiyotlar

4. Grafik qismining ro‘yxati

1.

2.

3.

4.

5.

6.

7.

Rahbar_____ /F.I.SH./

Bitiruvchi_____ /F.I.SH./

Kirish

I.BOB. Parklar va bolalar maydonchalarining rivojlanish tarixi.

1. Parklar va bolalar maydonchalarining rivojlanish tarixi.
2. Chet el va Osiyodagi parklar, landshaftlar va bolalar maydonchalari.
3. Obyektni o'rganish (umumiy, o'lchamlar)

II. Mavzelarda Bolalar Maydonchasi Dizayni va Interaktiv Rivojlantirish markazi interyerining kompozitsion yechim

1. Interaktiv povilyon interyerlari
2. Kompozitsion yechim (interaktiv povilyon interyerlari va bog'ning landshafti).
3. Pedagogik qism. Mavzelarda bolalar maydonchasi dizayni va interaktiv rivojlantirish markazi interyeri mavzusi bo'yicha kollej o'quvchilari bilan amaliy dars o'tkazish.

Xulosa.

Kirish

Bolalarning turli o'yinlar bilan band bo'lishi eng tabiiy omillardan biri hisoblanadi. Ammo bolalarning shahar sharoitida o'yin maydonchalarida vaqt o'tkazishlari oqibatida, ular turli tashqi faktorlar havfi ostida qoladilar. Shahar va mavzelarda joylashgan bolalar o'yin maydonchalari sotsial, shahar, madaniy va siyosiy o'zgarishlar ta'sir ko'rsatadi.

Ushbu bobda men bolalar o'yin maydonchalariga oid bir nechta tarixiy ilyustratsiyalar, misollar va faktlar keltirib o'taman.

Bolalar uchun mo'ljallangan maxsus o'yin maydonchalari va interaktiv pavilyonlarning aynan qachon vujudga kelgani haqida aniq vaqtni aytish birmuncha qiyin. Lekin shuni aytish joizki, o'yin maydonchalari ko'p yillar mobaynida shahar va qishloqlarning ajralmas elementiga aylangan. Ularning ko'payishiga hamda yildan-yilga rivojlanib borishiga industriallashtirilgan shaharlarning ortishi sabab bo'lgan.

Tarixiy manbalarda ko'rsatilgan ilk bolalar o'yin maydonchalari Angliyaning Manchester shahrida 1859-yilda qurilgan. Keyinchalik 1887-yilda San-Fransisko (Kaliforniya)da qurilgan bo'lib, maydonchada arg'imchoqlar, sirpanchiqlar va hattoki aravacha bo'lga, aravachani esa echki yordamida yurgazishgan. XX asrning boshlarida Nyu Yorkda bolalar maydonchalarining qurilishi jadal ravishda tezlashdi. Bunga sabab shaharga kirib keluvchi immigrantlar sonining ortib borishi, uysiz va ishsiz odamlarning keskin ko'payib ketishi bo'ldi.

Transport vositalarining ko'payishi bolalarning kir va havfli shahar yo'llarida o'ynashi ularning so'g'ligiga yomon ta'sir ko'rsatdi. Nyu Yorkdagi ko'pgina asosiy yo'llarning asphalt bilan qoplanishi mashinalar harakatining tezlashishiga sabab bo'lgan. Buning oqibatida o'zlari o'ynayotgan hududlarda transport harakatiga halal berish maqsadida bolalar yo'llarga shisha siniqlarini

sohib qo'ya boshlaganlar. Demak, bolalar o'yin maydonchalarining alohida hududlar bilan ajratilishiga nafaqat bolalar balki yo'lovchi va haydovchilarning ham havfsizligi uchun amalga oshirilgan. Bu bilan shahar ma'muriyati bolalar o'yinlarini ham to'g'ri va havfsiz amalga oshirishga xizmat qilishgan.

Bolalar uchun mo'ljallangan o'yin maydonchalarida ayniqsa urushdan keyingi 40-yillarning oxirlariga kelib rivojlana boshladi. Daniyalik arxitektor Karl Sorensen bolalarning ular uchun maxsus ajratilgan joylarda emas, aksincha, qurilish joylarida, eski binolarda yoki omborlarda o'ynashga ko'proq qiziqishlariga e'tibor bera boshladi. Urushdan keying yarim vayrona shaharlar uchun arxitektorning bu konsepsiyasi ko'pchilikka ayniqsa yevropaliklarga ma'qul bo'ldi. Bolalar uchun ajratilgan o'yin maydonchalarining deyarli barchasi urush oqibatida vayron bo'lganligi sababli bolalar "sarguzashtlar maydonchasi" da vaqt o'tkazar edilar. Bu kabi o'yin maydonchalarining asosiy materiallari bolib, eski mashina shinalari, taxta bo'laklari, qogo'z qutilar va turli to'rlar xizmat qildi. Hozirgi kunga kelib bu kabi "sarguzashtlar maydonchalari" soni butun dunyo bo'yicha mingtadan oshgan. Bu o'z vaqtida bolalar o'yinlariga o'zgacha yondashuv va moliviy jihatdan tejamkorlikka asoslangan.

Ikkinchi Jahon Urushida jabr ko'rmagan Amerika ham "sarguzashtlar maydonchalarini qura boshladi. "Amerika katta shaharlarining hayoti va o'limi" nomli kitob muallifi Djeyn Djejboks ham o'z kitobida shunday deb yozadi: "atrofi yopiq yoki devor bilan o'ralgan bolalar maydonchalari bolalar uchun juda zerikarli bo'lib, bu kabi bolalar maydonchalari faqatgina maktab yoshigacha bo'lgan bolalarni to'play oladi., yo'lkalar, odamlar gavjum yoki odamlar bilan aloqada bo'la oladigan joylarda o'ynashni yoqtirishadi. Bu bilan ular atrof-muhit, atrofdagi odamlarni o'rganishadi. Ochiq maydondagi o'yinlar orqali bolalar o'zlari va atrofidagi bolalar uchun o'zida ma'suliyatni his eta boshlaydilar. Ularning ham aqliy, ham jismoniy qobiliyatlari yaxshiroq namoyon bo'ladi. Bolalarni devor bilan yopiq maydonchalarga kirgazayotgan odamlar ko'proq o'zlarining mas'uliyatdan

qochishlrini o'ylaydilar, buning oqibatida bolalar o'zlarini tashqi dunyodan, muloqotdan ajralgandek his etishadi. ”

Bundan tashqari atrofi devor bilan o'ralgan bolalar maydonchalari ota-onalar nazorati uchun ham noqulayliklar tug'diradi. Olti yoshdan kattaroq bo'lgan bolalar ko'proq ochiq maydondagi bolalar maydonchalari3

Bolalarning o'sish jarayoni va bu jarayonda bolalar maydonchalarining bolalarga ta'siri haqida turli hil perspektiv qarashlar mavjuddir. Fikrlarimning davomida men bular haqida to'xtalib o'tmoqchiman. Bu bizga ular haqidagi qisqacha tasavvurni beradi: “havfsiz” o'yinlar konsepsiyasi, bolalarga idrok eta oladigan odamlarga qaragan kabi qarash, bolalarning kattalarga taqlidi, hech narsadan qo'rqmay tavakkal qilishi va hamma bilan bir qatorda shahar hayotida ishtorok etishi shular jumlasidandir. Bu kabi barcha perspektivalarning barchasi bolalarning o'yinlari va ularning shahar hayotidagi turli hil ahamiyatini o'zida aks ettiradi.



Vilnyus (Germaniya). Albatta eslab o'tilishi lozim bo'lgan yana bir perspektiva. Sobiq Sovet Ittifoqi davrida, uning ta'siri ostida barpo etilgan bolalar maydonchalari, hozirgi kunga kelib esa, g'arbiy yevropa mamlakatlarida qurilayotgan bolalar maydonchalarining loyihalari va modellarini qo'shgan holda qurilayotgan bolalar maydonchalari ham bizga analiz qilish uchun qiziqarli misol bo'la oladi.

Vilnyus shahrida qurilgan mavzelar orasidagi bolalar maydonchalarini bir nechta asosiy kategoriyalarga ajratish mumkin:

Birinchi toifadagi bolalar maydonchalari SSSR davridan qolib ketgan eski bolalar maydonchalari o'rniga, uncha katta bo'lmagan yengil konstruksiyali, asosan, yog'och va plastik materiallaridan foydalanib qayta ta'mirlangan bolalar maydonchalari. Shahar markazida joylashgan mavzelar orasida esa ko'proq konstruksiya va o'yin anjomlari mavjud bo'lgan bolalar maydonchalari.

Ikkinchi toifadagi bolalar maydonchalariga pullik bolalar maydonchalarini misol qilishimiz mumkin. Bu kabi bolalar maydonchalari ko'pincha, savdo markazlari, ko'ngilochar parklar va avtonom tarzida bo'ladi. Ikkinchi toifadagi o'yin maydonchalari ko'proq oilaviy vaqt o'tkazish uchun mo'ljallanadi. Misol uchun dam olish kunlari katta savdo markazlariga oilaviy dam olish uchun borish yoki bolalar qarovsiz qolmasliklari uchun ularni ma'lum bir vaqtga (1-2 soat) shu kabi maydonchalarda vaqt o'tkazishlari uchun qoldirish.

Eski bolalar maydonchalari ko'proq 5-6 yosh va undan kattaroq bo'lgan bolalar uchun mo'ljallangan bo'lgan. Metall arg'imchoqlar, sirpanchiqlar, turniklar, kamalak zinasi bunga misol bo'ladi. Bunday bolalar maydonchalari kichik yoshdagi bolalar uchun havfli bo'libgina qolmay, normalarga ham to'g'ri kelmaydi. Bu kabi bolalar maydonchalari 40 yildan ham ko'proq chidamlidir, bu esa o'z navbatida

ularning havfini oshiradi. Hozirda saqlanib qolgan shunday bolalar maydonchalarining ko'pi urushdan keying 50-yillarda qurilgan.

Hozirda saqlanib qolgan ko'pgina o'yin maydonlari, eski bog'lar va maktablarda turli raketa, kosmik kemalarni uchratishimiz mumkin. Bu kabi konstruksiyalar 60-yillarda keng qo'llanilib kelgan, lekin hozirgi kunga kelib ular ishlab chiqarilmaydi. Yuqorida aytilgan konstruksiyalar o'sha yillar ideologiyasiga ko'proq mos kelgan, masalan, Yuriy Gagarinning Oyga parvozi yoki olimlarning kosmosni o'rganishga bo'lgan qiziqishi, axborotlarda bular haqida ko'p gapirilganligi. Ko'pgina psixologlar bu osha davr siyosatiga mos bolalarning tarbiyalanishiga turtki bo'ladi deb hisoblashgan. Ya'ni bolalar maydonchalarida bolalar ko'proq o'z shaxsiy qiziqishlari yoki tasavvurlariga emas atrofidagi konstruksiyalarga taqlid orqali tarbiyalangan.

Bu kabi bolalar maydonchalarining o'rniga turli yoshdagi bolalar uchun mo'ljallangan, yog'och va plastikdan ishlangan, ko'p hollarda monolitli yoki yengil va qulay yangi konstruksiyalar qo'llanila boshlandi. Bolalar maydonchalarining qayta qurilish tendensiyasi 2012-yilda keskin rivojlandi. Bu yillarda bolalar uchun mo'ljallangan maxsus uychali sirpanchiqlar, to'rli kanatlar, arg'imchoqlar, qumlar, kichik qoyachalarini bolalar maydonchalariga o'rnatish keng tarqaldi.

Bundan tashqari 2012-yil Yevropada krizisning bartaraf etilishi, moliyaviy ahvolning yaxshilanishi shaharlarning va bolalar uchun ajratilgan hududlarning qayta rekonstruksiya qilinishiga sabab bo'ldi. Buning yana bir sababi ota-onalarni bolalar maydonchalarining deyarli bir hil ko'rinishda ekanligiga norozilik bildirganliklari bo'ldi. Professor Feliks Akkermann (Germaniya) aytishicha, bunga sabab o'yin maydonchalarining bir hilligi bolalarni tezda zeriktirib qo'yishi, ota-onalarning ularni boshqa joy yoki boshqa mashg'ulot izlashlariga sabab bo'lishidadir.

2013-yilgi rekonstruksiyadan keyin Bernardiysk (Germaniya) parki ham o'zgacha ko'rinishga keldi. Aylanali arg'imchoqlar, bog'lar, favvoralar, bolalar

maydonchalari qurildi. Lekin ayrim aholi bundan norozi bo'ldi. Ularning fikricha, bog'ning katta qismini restavratsiya qilib unit inch joydan, odamlar ko'p keladigan gavjum joyga aylantirilganligi, shahar markazidagi shovqinning yanada oshishiga sababchi bo'lishidadir. So'nggi yillarda turli mamalakatlarga kirib kelgan yangi bolalar maydonchalarining turlaridan biri- bu "pop up" bo'lib, bu so'zning ma'nosi ingliz tilidan "vujudga kelayotgan" degan ma'noni bildiradi. Bu kabi o'yin maydonchalari turli shaharchalarda ko'proq dam olish va bayram kunlarida o'tkaziladi. Bir nechta ko'chalar "o'yin ko'chalari", deb nomlanadi va ko'chalarda turli bepul o'yinlar, jumladan, shaxmat, shashka, darts, mini basketbol, stol tennis, yoga, badminton, gimnastika, raqs va shu kabi boshqa turli hil sport va intellektual o'yinlar katta va kichik yoshdagi holi uchun o'tkaziladi. Bu kabi o'yin maydonchalari ayniqsa, AQSH va Yevropa shaharlarida mashhurdir. Bunday tashkil etiladigan o'yin maydonchalari ota-onalarning bolalar bilan o'zaro muloqotini ham yaxshilaydi, ularni yanada bir-biriga yaqinlashtiradi.





Bolalar maydonchalarining joylashish o'rnini tanlashda atrofdagi havfsizlik qoidalari, texnik talablar, estetik elementlar va landshaft dizayni hisobga olinishi kerak. Havfsizlik qoidalariga quyidagilarni kiritish lozim:

1. Barcha o'rnatilgan elementlar (arg'imchoqlar, uychalar, turniklar va b.q) yerga yaxshi o'rnatilgan va qotirilgan bo'lishi kerak.
2. Bolalar maydonchasidagi barcha yog'och elementlar yaxshi randalangan, bo'yalgan yoki loklangan bo'lishi shart.
3. Qulay va havfsiz to'shalgan gazon bolalarni travmatik holatlardan asraydi.

Bolalar maydonchalari uchun hududlar tanlaganda bolalarning havfsizligini va shu bilan birgalikda ota-onalarga uchun ham qulay bo'lishin ta'minlash lozim. Bolalar o'yinlari uchun mo'ljallangan zonalar turli qurilmalardan uzoqroqda va ota-onalar nazoratiga mos joyda bo'lishi kerak. Bolalar maydonchasi shunday joylashtirilishi kerakki, kunduzgi vaqtda maydoncha bir necha soat soyada bo'lishi hamda tungi vaqt uchun yetarlicha yoritilga bo'lishi shart. Agar qandaydir sabablarga ko'ra buning ilojisi bo'lmasa, bolalar o'ynaydigan qurilmalarning tepasiga quyoshdan himoyalovchi vositalar o'rnatiladi.

Yana bir asosiy va muhim jihatlardan biri- bu bolalar maydonchalarini yelvizak va shamoldan himoyalashdir. Buning uchun o'yin maydonchalari atrofiga

kichik o'simliklar yoki havfsiz konstruksiyali materiallardan yengil himoya o'rnatish mumkin. O'yin maydonchalarini doimiy salqin tushadigan, pastliklarda yoki shimoliy tarafga qaratgan holda qurish tavsiya etilmaydi. Bu qishda qorning erimasligiga, yomg'irli, nam havoda esa yerning qurimasligiga, zax bo'lishiga olib keladi.

Agar bolalar o'yin maydonchalarining umumiy hududiga to'xtaladigan bo'lsak, bunda biz maydonchadagi barcha o'yin elementlarining o'lchami, ularning joylashuvi va elementlarning bir-biriga halal bermay, havfsiz harakatlanishini hisobga olishimiz kerak.

Misol uchun ayrim zinapoyalar, panduslar yoki sirpanchiqlarning oldida katta bo'lmagan yo'lakcha albatta bo'lishi kerak. Maydonchadagi dinamik elementlarning komplekslari jumladan, arg'imchoqlar, karusellarning atrofida kamida 2 metr joy bo'lishi havfsizlik qoidalariga to'g'ri keladi.

No	Bolalar maydonchalaridagi o'yin elementlarining nomlanishi	Attraksion uchun kerakli hudud (kv.m)
1	Arg'imchoq	15
2	Karusel	20
3	Prujinali arg'imchoqlar	8-10
4	Sirpanchiq tepaliklar	15

Attraksiondagi qurilma arn o'rnatayotganda shuni ham hisobga olish kerakki, tayyoro'yin attraksionlari yig'ma konstruksiyali attraksionlarga qaraganda kamroq mehnat va joy talabetadi.

Bolalar uchun mo'ljallangan o'yin maydonchalarining qurilishidagi umumiy qoidalar.

Bolalar maydonchalari qurilishi uchun mo'ljallangan hududlarni birinchi navbatda tekshirish lozim. Rejalashtirilgan hudud gruntida o'tkir, kesuvchan va qadaluvchan predmetlarning bo'lmasligi ta'minlanishi kerak. Shundan so'ng bolalar maydonchasi qurilishi uchun mo'ljallangan hududda va uning atrofida zararli o'simliklarning bo'lmasligi, bolalar sog'ligi va havfsizligi uchun shart. Bu kabi o'simliklarga zaharli hidlar chiqaruvchi, o'zidan zararli moddalar, mevalar va suyuqliklar ishlab chiqaruvchi butalar va o'tlar, o'tkir nishli gullar va shu kabi boshqa o'simlik va gullar misol bo'ladi.

Bolalar maydonchalari qurilishi uchun ajratilgan maxsus hudud turli notekisliklar va teshiklardan yaxshilab tekislanishi kerak. Hudud uchun eng to'g'ri keladigan va bolalar uchun havfsiz bo'lgan optimal qoplama bu gazon hisoblanadi. Bolalar maydonchalarida bolalar aktiv harakat qilishganlari uchun gazon qoplamasining bosilishga chidamli turini tanlash lozim. Bundan tashqari gazonning sun'iy (rezinali) turini ham qo'llash mumkin, lekin bu tabiiy tozalikni saqlay olmaydi. Bolalar uchun eng ma'quli bu tabiiylikdir. Ammo bu kabi sun'iy gazon qoplamalarini bolalarning sport bilan shug'ullanadigan hududlarida qo'llash mumkin. Agar bolalar maydonchalarini qurish mobaynida gazon uchun mablag' yetarli bo'lmasa, hududdagi mavjud o'simliklarni kesish va ular orasida zararli va zaharli o'simliklarning qolmaganligini tekshirib ko'rish kerak.

Bolalar maydonchalari uchun muhim bo'lgan elementlar.



Bolalar uchun quriladigan o'yin maydonchalarining joylashuvi aniqlanib qurilishga tayyorlangach, maydoncha hududiga bolalar uchun qiziqarli va kerakli qanday elementlarni joylashtirish masalasi o'rin oladi.

1. Qumli o'yin burchagi. 7 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun juda muhim va rivojlantiruvchi o'yin turlaridan birir hisoblanadi. Qumli maydonchalar hosil qilishning ko'pgina variantlari mavjud. Ularni yog'ochdan, rezina g'ildiraklaridan, g'ishtdan va boshqa materiallardan qurish mumkin. Qumli o'yin maydonchasi uchun mo'ljallangan qum toza va quruq bo'lishi kerak. Keyinchalik qum yer bilana aralashib ketmasligi uchun uning tagiga geotekstil qoplamasi yotqiziladi. Qumli o'yin maydonchasini quyoshdan va yomg'irli havodan himoya qilish uchun uning tepasiga himoyalovchi tomli konstruksiya o'rnatish mumkin.

2. Butaforiya. Avtomobillar, poyezdlar, vagonchalar. Bularning barchasini qo'l ostingizda mavjud bo'lgan oddiy va yengil materiallar (yog'och, yengil metall yoki plastik)dan qurish mumkin.

3. Arg'imchoqlar. Bunday konstruksiyani qurish mobaynida o'ta ehtiyotkor bo'lish kerak. Uning havfsiz qotirilishiga va o'zaro bog'langan joylarining to'g'riligiga e'tibor berish shart. Arg'imchoqning havfsizligini katta yoshli odamlarning tana og'irligida tekshirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Agar arg'imchoqlar daraxtga o'rnatilmasa, yog'och yoki metall konstruksiyani gruntga yaxshi va baquvvat qilib o'rnatish kerak.

4. Uychalar. Bunday elementlar bolalar maydonchalarining barcha yoshdagi mehmonlari uchun juda qiziqarlidir. Kichik yoshdagi bolalar uchun yengil materiallardan iborat bo'lgan kichik palatkachalar yoki uychalarni qurish mumkin. Agar uychalar og'irroq (yog'och, metall) materiallaridan yasalsa, bu holda konstruksiyalarning mustahkam va chidamliligiga alohida e'tibor qaratish lozim. Bolalar kichik uychalar ichida o'zini huddi katta odamdek his qilishi uchun uycha ichiga stol-stullar yoki boshqa qiziqarli jihozlarni ham o'rnatish mumkin. Bunday o'yin muhitida bolalar o'z kichik olamini, o'zlarining fantaziyalarida yaratadilar. Bu ularning tezroq va yaxshiroq rivojlanishi uchun ham foydalidir

5. Gamak. Bu hildagi o'yin attraksioni nafaqat kichik yoshlilar balki katta yoshdagi bolalar uchun ham juda qiziqarlidir. Bolalar undan foydalanganida turli

yomon vaziyatlar sodir bo'lmashligi uchun uni avval boshdan pishiq va mustahkamini tanlash kerak.

6. Sirpanchiq. Bolalar maydonchasi uchun eng muhim bo'lgan elementlardan biridir. Lekin sirpanchiqli o'yin elementlarini qurishda, ularning silliqqligi, bolalarga hech qanday havf tug'dirmasligiga alohida e'tibor berish kerak. Shuning uchun bunday konstruksiyani tayyor holatda maxsus ishlab chiqarilgan joylardan olib kelgan ma'qul.

Bolalar maydonchalarining dekorativ yechimi.

Bolalar maydonchalarini bezatish uchun juda turli hildagi g'oyalarni qo'llash mumkin. Buning barchasi dizaynerlar, quruvchilar yoki ota-onalarning tassavurlariga bog'liq. Masalan orgoynali malbertlar. Ular oddiy suv yordamida tez va samarali yuviladi. Yoki kichik suv havzasi. Uni yaratish uchun ham ortiqcha mablag' va vaqt talab etilmaydi. Eski vannani yerga qazib o'rnatish va uning atrofini oddiy qo'l ostidagi materiallar (plitalar, doskalar yoki o'simliklar) bilan o'rash kifoyadir. Lekin bu kabi kichik suv havzalaridagi suvni kamida 1 haftada 1 marta albatta almashtirib turish lozim.

Bundan tashqari bolalar maydonchalarida bolalar erkin ijod qilishlari uchun ochiq maydoncha hosil qilish mumkin. Bunday burchaklarda bolalar yerga yoki devorlarga mel yoki bo'yoqlar yordamida erkin, o'zlarini harakatdan cheklamagan holda rasm chizadilar.

Bolalar maydonchalari uchun yana bir qiziqarli g'oya- bu arqonlar bilan yasalgan "tarzanka". Bunday elementlar bolalarga vaqtni qiziqarli o'tkazib, jismonan chiniqishlariga va rivojlanishlariga ham yordam beradi.

Turli materiallardan yoki butalar va gulladan foydalanib rang-barang qushlar, figuralar, hayvonchalarning shakllarini aks ettirish mumkin.

Kattalar o'z farzandlari uchun qanday maydonchani qurishgan bo'lmasin, hoh u o'z mehnatlari bilan yoki quruvchilar yordamida yaratilgan bo'lmasin, ota-onalar o'zlari va farzandlarining vaqtini unumli sarflashga sabab bo'lgan bo'ladilar.

Chunki aynan o'yinlar, o'zaro muloqotlar orqali kichik yoshdagi bolalar dunyoning ranglarini. Tabiatda kechayotgan turli jarayonlarni ko'rib, o'rganadilar. O'zlarida tasavvur hosil qiladilar. Bu bilimlar ularga kelajakda yetuk va barkamol inson bo'lib yetishishlarida xizmat qiladi.

XX asrning yetuk psixologlari Mariya Montessori va Anton Makarenko o'zining ko'p yillik tajribalari, kuzatuvlari va izlanishlari natijasida, shuni ta'kidlashadiki, bolalarning o'yinlari ularning qiziqishlari bola katta bo'lgani sari o'sib, chuqurlashib boraveradi.

Bolalar maydonchalarini qurishda bu prinsipga alohida rioya etish, hamda uni yo'naltiruvchi prinsip sifatida qabul qilish lozim. Bolaning yoshidan kelib chiqqan holda uning alohida dunyosi uchun, uning erkin rivojlanishi uchun joy ajratish kerak. Bolalarning yoshini hisobga olgan holda bolalar maydonchalari 3 toifaga bo'linadi:

1. **3-5 yosh oralig'idagi bolalar.** Bu bolalarning ayni individualist va o'z narsasini taniy oladigan yoshidir. 3 yoshli bolalar uchun qumli maydoncha va prujinali arg'imchoq eng yaxshi tanlov hisoblanadi. 4 yoshli bola uchun uncha katta bo'lmagan arg'imchoq yoki karusel to'g'ri keladi. 5 yoshdagi bolalar ko'proq uychali va sirpanchiqli konstruksiyalarda o'ynashga qiziqishadi. Bundan tashqari bolalar maydonchasini turli intellektual o'yinlar yoki mashqlar (harfli, raqamli o'yinlar, chizish uchun mo'ljallangan joylar) bilan boyitish ham maqsadga muvofiq bo'ladi.

2. **6-12 yosh oralig'idagi bolalar.** Bu yoshda bolalar ko'proq kollektiv o'yinlarini o'ynashni ma'qul ko'rishadi. 6 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun eng qiziqarli o'yin maydonchalarini qurish mumkin. Bu kabi bolalar maydonchalariga kosmodromlar, raketalar, qasrli minoralar va boshqalarni o'rnatish mumkin. Yana bu yoshdagi bolalarga kanatlar, turniklar, sirpanchiqlar, chirmashib chiqish uchun maxsus setkalar ham qiziqarli mashg'ulot bo'ladi. Agar mablag' yetarli bo'lsa, stol tennis, basketbol va futbol maydonchalari yoki batut kabi o'yin burchaklarini yaratish mumkin.

3. **12 yoshdan katta bo'lgan bolalar.** Bolalarni bu yoshida ko'proq sport qiziqtiradi. 12 yoshdan katta bo'lgan bolalar trenajor mashqlariga, shtanga, vertikal zinalarga va boshqa shu kabi konstruksiyalarga qiziqadilar. Bularning barchasi o'sib kelayotgan bolalarning yig'ilgan energiyasini to'g'ri sarflanishiga yordam beradi.

Havfsizlik qoidalari normalari. Hozirgi standartlar bo'yicha quyidagi terminlar muvofiq deb topilgan:


3.1 Bolalar o'yin maydonchalaridagi qurilmalar: ochiq yoki yopiq maydonchalardagi o'yin qurilmalari individual yoki jamoa bo'lib o'ynash uchun xizmat qiladi. Ular kerakli me'yori va qoidalarga asoslangan bo'lishi lozim.

3.2 Zarbalarni o'ziga yutuvchanlik xususiyati: bolalar maydonchalarining serharakat hududlari, jumladan, ularning qurilmalardan kelib to'xtaydigan, sirpanib tushadigan joylari amortizatsiyalangan yoki yumshoq qoplamali bo'lishi bolaning havfsizligini ta'minlaydi.

3.3 O'yin maydonchasidagi umumiy zonaning havfsiz materiallardan tashkil topgan bo'lishi.

3.4 Bolalar o'yin maydonchalarining qurilmalar mavjud qismidagi havfsizlik zonalari: bolalar o'ynayotgan qurilmalarda, ularning ichida yoki ustida. Bolalarning havfsiz tushishi, yurishi va harakatlanishining ta'minlanganligi.

3.5 Bolaning tushish hududidagi havfsizligi: bu bolaning qurilmadan sirpanib tushishi natijasidagi harakatlanish zonasidir.



O'yin qurilmasining umumiy zonalarga ajratilishi: 1 – tushish zonasi; 2
– havfsizlik zonasi; 3 – so'nggi tushish nuqtasi

3.6 Erkin tushish balandligi: bolaning qurilmadan tushish zonasidan boshlab to so'nggi nuqtaga kelguniga qadar bo'lgan vertical tayanch qavati.

3.7 Zinapoya: gorizontal og'ish burchagi 15° - 60° ni tashkil etuvchi, yuqoriga olib chiquvchi gorizontal zinalardan tashkil topgan.


3.8 Trap: og'ish burchagi gorizontal bo'yicha 0° - 38° ni tashkil etuvchi, tekis yuzali, eng oddiy qurilmalardan biri.

3.9 Ushlab olmoq: barmoqlarni yopiq holatida tayanchni uslash.



Barmoqlarni birlashtirgan holda tayanchni uslash

3.10 Ushlab qolmoq: tayanchni barmoqlarni bukmagan holda ushlab turish.



Tayanchni barmoqlarni bukmagan holda ushlab turish

3.11 Tiqilib qolish: juda havfli vaziyatlardan biri bo'lib, bunda bolaning tanasi yoki uning kiyimi qurilma orasida tiqilib qolishidir.

3.12 Foydalanish qiyin bo'lgan qurilmalar: faqatgina ma'lum yoshdagi bolalar uchun mo'ljallangan, boshqa yoshdagi bolalarning qurilma ichidagi harakatini cheklovchi oqibatlarga sabab bo'ladi. Misol uchun qurilmaga ko'tarilish uchun mo'ljallangan zinapoyalarning yerdan balandigi 400 mm ni tashkil etishi yoki ko'p qavatli platformalarning platformalari orasidagi masofasi 600 mm dan ko'proqni tashkil etishi. Bunday holatlardan saqlanish maqsadida o'yin maydonchalaridagi bolalar kattalarning doimiy nazoratida bo'lishlari kerak. Chunki ularni maydoncha ichidagi harakatlarini cheklab bo'lmaydi.

BOLALAR O'YIN MAYDONCHALARIDAGI HAVFSIZLIK TALABLARI

4.1 Qurilmadan foydalanish o'zida quyidagi havfni keltirib chiqarishi mumkin:

- konstruksiyadagi elementlarning sinishi;
- bolaning turli hatti-harakati;
- qurilmaning ustiga yiqilish;
- qurilmadan yiqilish;

- sirpanish havfi;
- bolalarning qurilmaga yoki bir-biriga urilib ketish havfi;
- bolalarning qurilmada tiqilib qolishi havfi.

4.2 Materiallar

4.2.1 Qo'llaniladigan materiallar:

- ekspluatatsiya vaqtida bolalarga va atrof muhitga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi;
- harorati o'ta issiq yoki sovuq bo'lgan iqlim zonalarida va boshqa holatlarda, bolalarning terisida foydalanish jarayonida kuymasligi; lozim.

4.2.2 Tez yonuvchan issiq va sovuqqa chidamsiz hamda eruvchan polimer materiallardan foydalanish taqiqlanadi.

4.2.3 Yonish jarayonida yoki foydalanish mobaynida o'zidan zararli moddalar chiqaruvchi materiallardan foydalanish taqiqlanadi.

4.2.4 Tarkibi va atrof muhitga ta'sir darajasi yaxshi aniqlanmagan yangi turdagi materiallardan foydalanish taqiqlanadi

4.2.5 Polimer va kompozit materiallar ultrabinafsha nurlarga chidamli bo'lishi shart.

4.2.6 Agar foydalanish jarayonida polimer va kompozit materiallarning rangi, ko'rinish o'zgarib, sinishga moyil bo'la boshlasa. Bunday hollarda ishlab chiqaruvchi uning yaroqlilik muddatini mahsulotda aniq ko'rsatishi kerak.

4.2.7 Foydalanish jarayonida o'zida zang hosil qiluvchi metall qurilmalar albatta ustki qoplama (bo'yoq va b.q) bilan qoplangan bo'lishi shart.


4.2.8 yog'och va yog'och eskirishidan himoyalovchi vositalar davlat standartlariga mos kelishi kerak. FOCT 20022.0 va FOCT 20022.2.

4.3 Qurilmaga qo'yiluvchi talablar.

4.3.1 qurilma va undagi elementlar:

- ma'lum yoshdagi bolalar uchun mo'ljallangan bo'lishi;
- o'yin davomida yuzaga keladigan noxush vaziyatlardan bolani himoya qila olishi;
- qurilma ichkarisidagi bolaga kattalarning qo'li yetishini ta'minlashi;
- qurilma ichiga suvning kirmasligini, yoki tez qurishini ta'minlashi kerak.

4.3.2 Qurilma konstruksiyasi mustahkam, chidamli va o'z holatini saqlay oladigan bo'lishi kerak.




4.3.3 Qurilmadagi metall elementlar korroziyadan himoyalangan bo'lishi shart.

4.3.4 Polimer va kompozit materiallardan tayyorlangan qurilmalar ishlab chiqaruvchi ko'rsatgan vaqt o'rasida yangilanib turilishi kerak.

4.3.5 Yog'och elementlardan tashkil topgan qurilmalar ГОСТ 20022.2 bo'yicha "chidamli" va "o'rta darajada chidamli" bo'lishi kerak.


4.3.6 Uchli va burchakli elementlarning qurilmalarda ishlatilishi taqiqlanadi.

4.3.7 Bolalarning sog'ligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi notekis yuzalarning bo'lishi taqiqlanadi



Keskin to'siqlar

4.3.8 Qotirish moslamalarining yuza qismi bolalardan himoyalangan va yopilgan bo'lishi kerak.



Qotirish moslamalarining himoyalanishi

4.3.9 Metallkonstruksiyalarning o'zaro ulangan qismlari tekis bo'lishi kerak.

4.3.10 konstruksiyadagi har qanday o'tkir burchaklar silliqlangan va tekislangan bo'lishi shart.

4.3.11 V simon devorlar orasidagi burchak 60° dan kam bo'lmasligi kerak.

4.3.12 elementlarning bir-biriga qotirilgan qismlari kerakli jihozlarsiz qayta ta'mirlinishi taqiqlanadi.

4.3.13 Yopiq yo'lakchalar, tonnellar, o'yin uychalarining ichki qismi 2000 mm dan kam bo'lmasligi va tonnellardagi chiqish joyigacha bo'lgan masofa


oralig'ida kamida 2 ta ochiq joy bo'lishi shart. Bu bolalarning havfli holatlarda qurilmani tezroq tark etishiga yordam beradi.

Bolalarni o'yin jarayonida yiqilishdan himoyalash.

4.3.14.1 Bolalarni yiqilishdan himoya qilish maqsadida maxsus to'siqlar qo'yiladi


4.3.14.2 bolalarni yiqilganida havfsizligini ta'minlash maqsadida qurilma atrofiga yumshoq qoplamali materiallar yotqiziladi.

4.3.14.3 quyida bolalarning yiqilishini oldini olishga xizmat qiluvchi moslamalarning turlari va balandliklari keltirilgan.




1 – yumshoq qoplamaning bo'lishi shart; 2 – to'siqlarning bo'lishi shart; 3 – himoyalovchi konstruksiyalarning bo'lishi shart

4.3.14.4 zinapoyalarning eng pastki qismidan boshlab himoya to'siqlari o'rnatilgan bo'lishi kerak.




Zinalarning joylashuv proeksiyasi va chuqurligi

4.3.14.5 zinapoyalardagi to'ziqlar ularning ustiga o'rnatiladi. Umumiy talablarga ko'ra ularning balandligi 600- dan 850 mm gacha bo'lishi, eni esa 60 mm dan kam bo'lmasligi bo'lishi kerak.



1 – zinapoya zinalari; 2 – to'siq; H – to'siq balandligi

4.3.14.6 barcha yoshdagi bolalar uchun mo'ljallangan qurilmalardagi o'tish joylari 500 mm dan kam va erkin tushish balandiligi 2000 mm dan ko'p bo'lmasligi kerak.



1 – himoyalovchi konstruksiya

Tiqilib qolishdan himoyalash

4.3.23.1 qurilma konstruksiyalarida bolaning tiqilib qolishidan himoyalaniishi shart.


4.3.23.2 ishlab chiqaruvchi materialning foydalanish jarayonida o'z ko'rinishini o'zgartirishini hisobga olishi kerak.

4.3.23.3 Bolaning bo'yin va bosh qismining tiqilib qolishi mumkin emas.

4.3.23.4 Osma ko'priklardagi elastic elementlar va harakatsiz konstruksiyalar orasidagi masofa 230 mm dan oshmasligi kerak.


4.3.23.5 Bolalarning oyoq qismini tiqilib qolishidan himoyalash.


- bolalar yugurib yoki erkin harakt qilib yuradigan yuzalardagi konstruksiyalar orasiga oyoqning kirib qolishi.



45° li burchakgacha bo'lgan yo'lakchalar orasidagi masofa.

Таблица 1

Элемент застревания	Отверстия:		Прямоугольные зазоры или щели	V-образные зазоры или щели	Выступы	Подвижные элементы оборудования
	жесткие	нежесткие				
Все тело		—	—	—	—	
Голова/шея — вперед головой					—	
Голова/шея — вперед ногами			—		—	—
Кисть и рука	—	—	—		—	
Нога и ступня		—			—	
Пальцы					—	
Одежда	—	—				
Волосы	—	—		—	—	




1 – qattiqkonstruksiya; 2 – osmako’prik; 3 – qattiqqoplama;
4 -diametri 230 mmbo’lganaylana

yugurishyoki yurish uchun mo’ljallangan maxsus 45° liyuzalar orasi
 30 mm danko’pbo’lmasligi kerak.

4.3.23.6 Bolalarning barmoqlari qisilib qolishidan himoyalash.

- turli teshiklar va ochiq qolgan joylarda. Arg’imchoqlar va sirpanchiqlar
 orasida.



h — erkin tushish balandligi.

Mavzelarda bolalar maydonchasi dizayni va interaktiv rivojlantirish markazi interyeri mavzusiga to'xtalishning asosiy sababi, bugungi kunda bu mavzuning dolzarbligidir.

Loyiha asosan ikki qishki va yozgi qismlardan tashkil topgan hududlarga bo'linadi. Hudud ichida barcha yoshdagi aholi erkin harakat qilishi, hordiq chiqarishi va vaqtini unumli o'tkazishi mumkin. Jumladan, hududning yoz mavsumi uchun mo'ljallangan qismida yozgi bolalar maydonchasi, dam olish zonalari, kichik suv inshootlari (favvora vasharsharalar), yashil zonalar, kichik bog'lar mavjuddir. Har qanday yoshdagi aholi uchun maxsus ajratilgan hududlar ularning erkin dam olishiga yordam beradi. Masalan hududning bir qismi faqatgina bolalar o'yin maydonchasi uchun ajratilgan bo'lib, bu zona asosan shovqinli hisoblanadi. Kattaroq yoshdagi aholi uchun shovqinli hududdan ajralgan zonada besedkalar joylashtirilgan. Kichik suv inshootlarining mavjudligi yozning jazirama haroratida ham aholiga toza va salqin havo kelishini ta'minlab turadi. Hudud ichidagi barcha zonalar, bog'lar va o'yin maydonchasi mavze aholisining Yoshi va soni uchun mo'ljallangan. Hattoki yozning issiq kunlarida kechki payt ham aholi bu yerga hordiq chiqarish uchun kelishi mumkin. Bog' ichkarisi kechki payt huddi kunduzgi kabi, odamlar kelib dam olishlari uchun yetarlicha yorug'lik bilan ta'minlangan. Tunggi vaqtda bog'dagi chiroqlar yoqilgach u yanada o'zgacha ko'rinish kasb etadi. Loyiha barcha standart va normalar asosida vujudga kelgan. Bolalar maydonchasi uchun mo'ljallangan barcha qurilma va attraksionlar havfsiz o'ylangan.

Povelyonning ichki qismiga kiraverishda katta foye mavjud bo'lib, foye binoni ikki qismga shovqinli va shovqinsiz zonalarga ajratadi. Foyeda ikkinchi qavatga ko'tarilish uchun ikki tomondan yarim aylana zinalar mavjud. Zinalarni bir-biridan sun'iy sharshara ajratib turibdi.

Binoning shovqinli zonasiga qishki bolalar maydonchasini, shovqinsiz zonasiga esa dam olish xonalari, bolalar ijodi galereyasi, to'garaklar xonasi, mashg'ulotlar zali kiradi. Loyihaning yopiq, yengil konstruksiyali qismida nafaqat

qishki bolalar maydonchasi, balki, mavzedagi bolalarning intellektual salohiyatini oshirish uchun mo'ljallangan maxsus to'garaklar xonalari ham mavjuddir. To'garaklar asosan interaktiv ko'rinishda olib boriladi. Ya'ni to'garaklarda bolalar chizish, tikish, to'qish, mehnat bilan shug'ullanishadi. Rasm to'garaklari bilan shug'ullanuvchi bolalarning bajargan ishlarini, chizgan rasmlarini esapovelyon ichida joylashgan, maxsus bolalar ijodi galereyasida saqlash mumkin. Birinchi qavatda joylashgan to'garaklar xonasi bir-biridan yengil ochiluvchi konstruksiya yordamida ajratilgandir. Bu xonalarda tabiiy yorug'lik ko'p bo'lganligi sababli ular ko'proq rasm to'garaklari uchun moslashtirilgan. To'garaklar xonasida ham ko'proq yumshoq, och ranglardan foydalanilgan. Bolalar fikrini jamlay olishlari uchun turli jihozlar kam qo'llanilgan. Ular bu yerda o'z vaqtlarini maroqli va foydali o'tkazishlari mumkin.

Qishki bolalar maydonchasi binoning birinchi qavatida joylashgan bo'lib, u o'zida turli qurilmalarni mujassamlashtirgan. Ota-onalar o'z farzandlarini bimalol o'yin maydonchasida joylashgan dam olish zonasidan nazorat qilishlari mumkin. Bolalar maydonchasining umumiy maydoni 100 kv.m ni tashkil etadi, bunda bolalar o'zlarini erkin harakatlardan cheklamaydilar. Maydonchada bolalar individual va jamoa tarzida turli o'yinlar o'ynashlari mumkin. Jamoaviy o'yinlar ularni yanada aktiv, qiziquvchan qilib tarbiyalaydi. Bolalarning o'zaro yaxshi muloqotiga xizmat qiladi. Bolalar maydonchasi hududida barcha yoshdagi bolalar uchun qiziq bo'lgan qurilma va o'yin attraksionlari mavjud.

Maydonchadagi o'yin attraksionlari turli yoshdagi bolalarga mo'ljallangan bo'lishiga qaramay dizayn, ranglar uyg'unligi jihatidan bir-biriga mos keladi. Povelyonning mazkur qismi tabiat bilan bog'langanlik effektini hosil qiladi ya'ni maydonchaning oynali qismi yengil konstruksiyalardan tashkil topgan bo'lib, bu konstruksiyalar istalgan vaqtda birgina harakat bilan ochilib yopilishi mumkin.

Yengil konstruksiyalardan tashkil topgan katta oynalar ichkaridagi tabiiy yorug'likni ta'minlab beradi. Bundan tashqari ichkarida o'ynayotgan bolalar o'zini yopiq, chegaralangan joyda emas, balki, erkin harakatlanish zonasida ekanligini his

qiladilar. Interyerda asosan yumshoq, och ranglardan foydalanilgan bo'lib, bu katta va kichik yoshdagi aholida tinchlanish, dam olish, bosiqlik hislarini uyg'otadi. Bolalar maydonchasidagi rang-baranglik esa bolalarning ko'rish, ranglarni ajratish qobiliyatini rivojlantiradi. Bolalar maydonchasining shift qismi to'liqsimon naqshlar bilan bezatilgan. Bu kabi naqshlar binoning polida ham takrorlangan. Yopiq bolalar maydonchasi va umumiy dam olish zonasi bir-biridan zinalar orqali ajratilgan. Umumiy dam olish zonasining maydoni 50 kv.m ni tashkil qilib, bu yerda devoriy sharsharalar, xonaki gullar va o'simliklar mavjud. Bu xona ichidagi havoning doimo toza bo'lishiga xizmat qiladi. Bundan tashqari visual effektlarni yanada oshirish maqsadida interyarda oynadan ko'p foydalanilgan. Oyna mavjud bo'lmagan yopiq devorlarda esa sun'iy sharsharalardan foydalanilgan. Bu ayniqsa dam olish uchun mo'ljallangan tinch zonalarda juda qo'l keladi. Bolalar maydonchasining ushbu ochiq qismidan siz tashqariga chiqishingiz ham mumkin. Chunki bu hududning tashqi qismida yozgi maydonchaga olib chiqadigan zinalar mavjud.

Povelyonning yopiq qismi faqatgina bolalar uchun mo'ljallanmagan bo'lib, bu yerda siz katta yoshdagi aholi uchun shaxmat-shashka xonalari, maxsus dam olish xonalari va hattoki jismoniy mashqlar bilan shug'ullanishlari uchun sport xonasini ham ko'rishingiz mumkin.

Binoning ikkinchi qavatida zinadan chiqqach katta yarim aylana foyedan, yo'lak bo'ylab, kichik aylana foyega o'tiladi. Kichik foyeda biz xonalarning aylana bo'ylab joylashishini ko'rishimiz mumkin. Ikkinchi qavatda ikkita to'garaklar xonasi, ayollar va erkaklar kiyinish xonalari, dush xonasi va sport mashg'ulotlari zali joylashgan. Har bir xona interyeri alohida did bilan bezatilgan. Sport xonasidagi ortiqcha anjomlarni saqlash uchun maxsu sport anjomlari ombori ham mavjud. Sport mashg'ulotlari xonasida ko'cha tarafga qaratilgan katta oyna bo'lib, bu aholiga mashg'ulot jarayonida estetik zavq bag'ishlaydi.

Povelyonning har bir xonasi, har bir burchagidan loyihada unumli foydalanilgan. Mavzelarda bu kabi o'yin maydonchalari va inertaktiv pavelyon markazlarining qad ko'tarishi, o'sha yerdagi aholi hayotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Xonalarning o'ziga xos yechimi bolalarni tez zeriktirib qo'ymaydi. Markazning barcha qismida ularning shug'ullanishlari uchun foydali hamda qiziqarli mashg'ulotlar mavjud. Markazdagi har bir burchak o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Buni ranglarning yechimida, xonaning dizaynida ko'rishingiz mumkin. Ayniqsa, markaz ichidagi bolalar uchun ajratilgan qishki bolalar o'yin maydonchasidagi ranglar, turli chiroqlar povelyonga alohida ko'rinish beradi.

Har bir xona bolalar psixologiyasini, ularning xoxish va istaklarini hamda fantaziyalarini o'rganishdan kelib chiqib o'ylangan. Markaz ichkarisi va landshaftida bolalarning sog'ligi uchun xavfsiz bo'lgan tabiiy materiallar ishlatilishiga mo'ljallangan. Xonalar ichidagi tabiiy yorug'likning ko'pligi, oynalarning yaxlit kattalikka ega ekanligi, bolalarni qish mavsumida ham tabiat bilan hamnafas bo'lishlariga xizmat qiladi.

Har bir bolaning o'z orzulari, o'z dunyosi mavjud. Ularning dunyoqarashlarini yoshlikdan to'g'ri shakllantirish va oldiga aniq maqsad qo'yishga yo'naltirish kattalarning vazifasi.

Shuni unutmaslik kerakki, aynan bolalikdagi muhit bolaning kelajakda qanday yo'ldan borishini aniqlaydi. Shuning uchun o'sib borayotgan yosh avlod ham ma'naviy, ham jismoniy sog'lom muhitda voyaga yetishi lozim.



Dars berish metodikasi (uslubiyati)ning predmeti, bu dars berish (o'qitish) jarayonining o'zidir. «Metod» atamasi yunoncha «methodos tadqiqot yoki bilish yo'li, nazariya, ta'limot» so'zidan kelib chiqqan bo'lib tadqiqot yo'li, haqiqatga intilish, bilish, harakat qilish yo'llari, kutilayotgan natijaga erishish usuli ma'nosini anglatadi.

“Metod”, deganda voqelikni amaliy yoki nazariy o'zlashtirish usullari tushuniladi. Faoliyatning turli jabhalarini o'rganishni qamrab olgani holda ilmiy bilish va uning usullari metodikaning asosiy yo'nalishidir. Unda ta'lim va tarbiya berish usullari asosiy o'rinda turadi. Odatda metodika (uslubiyat) deganda ilmiy bilish faoliyatining shakllari va metodlari majmui haqidagi fan tushuniladi. Bu nazariy jihatdan qo'yilgan maqsadga etish, haqiqatni, reallikni, faoliyatni nazariy yoki amaliy bilish, o'rganishning usullari yoki operatsiyalari majmuidir.

Pedagogik amaliyotda, an'anaga muvofiq, o'quv tarbiyaviy maqsadlarga erishish uchun qo'llanilayotgan, tartibga solingan faoliyat usuli metod deb tushuniladi. Bunda o'qituvchining o'qitish faoliyati usullari bilan o'quvchining o'qish faoliyatining usullari birbiriga bog'liqligi ta'kidlanadi.

O'qitish metodi quyidagicha tavsiflanadi: o'qitishning maqsadi, o'zlashtirish usuli, o'quv jarayoni qatnashchilari (o'qituvchi, o'quvchi, talaba)ning o'zaro munosabati.

O'qitish metodikasi tushunchasi:

a) pedagogning o'qitish usullari va o'quvchining o'qish usullari hamda o'quvchining o'qituvchi bilan o'zaro bog'langanligini;

b) o'qitishdan ko'zlangan maqsadga erishish bo'yicha hamkorlikda ishlashning o'ziga xosligi, ya'ni, o'qitish metodlari belgilangan maqsadga etish uchun ta'lim vazifalarini hal etishda o'qituvchi va o'quvchining hamkorlikdagi faoliyatidir.

I. P. Podlasiyning fikricha, metod jarayonning o'zagi, rejalashtirilgan maqsadni ya'kuniy natija bilan bog'lovchi bo'g'in. «Maqsad – mazmun – metodlar – shakllar o'qitish vositalari» tizimidagi rollarni aniqlovchidir.

Ta'lim metodlari bir tomondan, ob'ektiv xarakterga ega bo'lib, qaysi pedagog qo'llashidan qat'i nazar, doimiy amal qiladigan mustahkam qonunqoidalar bilan bog'liq. Ular barcha didaktik qoidalar, qonunlarning talabi hamda maqsadlarning doimiy komponentlari, o'quv faoliyatining mazmuni, shaklini ifodalaydi. Ikkinchi tomondan, sub'ektiv xarakterga ega bo'lib, u pedagog shaxsi, o'quvchitalabalarning o'ziga xos tomonlari, aniq sharoit bilan belgilanadi.

Metodlarning ob'ektiv hamda sub'ektiv xakteri haqidagi fikrlar xilmaxildir. Metodlarning ob'ektiv xakterini butunlay inkor qilib, uni to'liq sub'ektiv xarakterga ega, shuning uchun ham takrorlanmasdir, u har bir pedagogning ijodi tarzida yuzaga chiqadi, degan fikr bildiruvchilardan tortib, uning tamomila aksi bo'lgan, to'la ob'ektiv xarakterga ega deydiganlar ham mavjud. Haqiqat, odatda, barcha fikrlarning o'rtasida tug'iladi. Aynan hamma metodlar uchun doimo umumiy bo'lgan obektiv tomoni, didaktika nazariyasi, ko'p holatlarda esa eng yaxshi bo'lgan amaliyot yo'llari tavsiya etiladi.

Metodlarning obektiv jihatlarida barcha didaktik qoidalar, qonunlar, tamoyillar, ta'riflar, mazmun butunligining doimiy komponentlari, o'quv faoliyatining shakllariga xos bo'lgan umumiy tomonlar aks etadi.

Metodlarning subyektiv jhati pedagog shaxsi, uning mahorati, ta'lim

oluvchilarning o'ziga xosligi va aniq sharoitga bog'liq. Dars jarayoni har ikki tomon bir butun bo'lib, birlashgan holda tashkil etiladi. Uning amaliy ifodasi qo'yilgan maqsadga ko'ra erishilgan natijada o'z aksini topadi. Metodlarning obektiv jihatini didaktik printsip nuqtai nazaridan talqin etish, uning nazariyasini ishlab chiqish, amaliyotda qo'llanishi zarur bo'lgan eng yaxshi metodlarni tavsiya etish, mantiqiy tanlash muammolarini muvaffaqiyatli echish imkonini beradi.

Metodlarni optimallashtirish uchun esa pedagoglar mahorati, ijodiy yondashish zarur bo'ladi. Shuning uchun ham o'qitish metodlari yuqori darajadagi san'at bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi.

Metod nihoyatda serqirra bo'lib, juda ko'p komponentlarni jamlaydi. Murakkabligi uchun ham metodni yagona ma'noga ega tarzda ifodalash qiyin. Shu bois metodning mazmunmohiyatini, sifatlarini soddalashtirilgan variantdagi ta'riflarda berishga to'g'ri keladi.

Sharq mutafakkirlari ham bilishning metodlariga katta e'tibor bilan qaraganlar. O'quv jarayonini tashkil etish va o'qitish metodlariga alohida e'tibor bergan alloma Aristoteldan so'ng «ikkinchi muallim» deb nom qozongan Abu Nasr Forobiy o'qitish metodlari haqidagi traktatlarida ta'lim oluvchilarga turli bilimlar berish bilan birga mustaqil holda bilim olish yo'llarini ham ko'rsatgan, bilim olish zarurligiga shakshubhasiz ishontirish lozimligini ta'kidlagan.

Hozirgi terminlardan foydalanib, Sharqning qomusiy allomalarining o'qitish metodlarini bilishning umumiy qonunlariga muvofiqligini aniqlasa bo'ladi. Ular foydalangan o'qitish metodlarini bir necha guruhlarga ajratish mumkin. Bular Ibn Sino qo'llagan ko'rgazmali tajriba metodlari, Abu Rayhon Beruniy, Al Xorazmiyning ko'nikma va malakalarni shakllantirish metodlari, Forobiy va Al Xorazmiyning bilimlarni tekshirish metodlari va boshqalardir. Ularning hammasi o'quvchi, talabalarning faoliyatini kuchaytirish, mantiqiy tafakkurini rivojlantirish maqsadini ko'zlagan.

Metodika va uning vazifasi. Metodika pedagogikaning tarkibiy qismi (pedagogika yunoncha paidagogike) bo'lib, insonni shakllantirishda muayyan maqsad sari qaratilgan sistematik faoliyat to'g'risidagi hamda ta'limtarbiya berishning mazmuni, shakli va metodlari (uslublari) haqidagi fandir.

Metodologiya esa (yunon. metod va logiya so'zlaridan) faoliyatning tarkibi, mantiqiy tuzilishi, metod va vositalari haqidagi ta'limotdir.

Metodologik bilim, birinchidan, muayyan faoliyat turlarining mazmuni va izchilligini o'z ichiga olgan odat va normalar shaklida, ikkinchidan, amalda bajarilgan faoliyatning ta'siri sifatida yuzaga chiqadi. Hozirgi zamon adabiyotlarida metodologiya deyilganda, avvalo ilmiy bilish metodologiyasi, ya'ni ilmiy bilish faoliyatining shakllari va usullari tushuniladi. O'qitish metodlarining serqirraligi, murakkab tuzilishga ega ekanligi unga turli jihatdan yondashuvlarda o'z ifodasini topadi.

Bitiruv malakaviy ishi uchun tanlangan mavzu loyihasining amaliy mashg'ulotda qo'llanilishi. Amaliy mashg'ulotning o'qitish texnologiyasi

Vaqt -4 soat	O'quvchilar soni 5-10 ta
O'quv mashg'ulotning shakli	Amaliy
O'quv mashg'ulotining rejasi	1. Mavzelardagi bolalar maydonchasi haqida 2. Bolalar maydonchasining me'yoriy va plan o'lchovlari 3. Maket yasash uchun mo'ljallangan materiallar
O'quv mashg'ulotining maqsadi: Bolalar maydonchalari haqida tasavvur va qulaylik hosil qilish	
Pedagogik vazifalar: O'ziga hos loyiha yaratish. Bolalar maydonchasining	O'quv faoliyatining natijalari: Talabalar yangi g'oyalarni o'ylab topishi.

qulay bo'lishi. Bolalar maydonchasining estetik jihatdan go'zal va qulay bo'lishini ta'minlash. Maydonchadagi o'yin attraksionlarining bir-biriga mos bo'lishi.	Bolalar maydonchalarining asosiy o'lchovlarini bilish. Bolalar maydonchalarining asosiy va mos formalarini keltirib chiqara olish.
O'qitish uslubi va texnikasi	Amaliy Klauzura So'zlar yordamida Ko'rgazmali
O'qitish vositalari	Chizmalar, maxsus o'quv kitoblari, illyustratsiyalar, ko'rgazmali materiallar, dizayn va arxitektura jurnallari
O'qitish shakli	Talabalar bilan individual shug'ullanish. Ularning ijodiy ishlarini mustaqil ishlashiga qaratish
O'qitish shart-sharoitlari	Amaliy mashg'ulotda maket yasash uchun mo'ljallangan maxsus stollar, chiroqlar, stullar, ustaxona

Monitoring va baholash	Bajarilgan eskizlarni, yasalgan maketlarni ko'rikdan o'tkazish
------------------------	--

Amaliy mashg'ulotning texnologik
xaritasi

Faoliyat bosqichlari	Faoliyat mazmuni	
	Pedagog	Talabalar
I bosqich Kiritish (10 daqiqa)	I.I. bolalar maydonchalari haqida ma'lumot berish	I.I. Eshitib, ko'rib, bilib oladilar
II bosqich Asosiy (120 daqiqa)	2.1 proektlarni namoyish etish ularning fikrlarini esitish 2.2 ko'rsatilgan namunalari orqali "Namuna va xato" metodidan foydalanish 2.3 ko'rib chiqilgan proektlar asosida o'quvchilar o'z mavzulari bo'yicha eskizlar chizadilar ularni o'lchamlarga soladilar.	2.1 Ma'lumotlarni ko'rib o'zlariga ko'chirib oladilar 2.2 O'qituvchining bergan bilimlari asosida eskiz qilishni o'rganish 2.3 Qiziqtirgan savollarga javob oladilar

III bosqi ch Yaku niy (10daqiq)	3.1 Mavzuni tushuntirishni yakunlaydi. Bajarilgan ishlar, yig'ilgan ma'lumotlarni baholash. 3.2 O'quvchilarning mavzu haqidagi fikrlarini bilish amalga oshirishni istagan o'z proektlari haqidagi g'oyalarini eshitish.	3.1 Mavzuga oid savollar berish. 3.2 Qo'shimcha ma'lumot kiritish. 3.3 har tomonlama qulay, go'zal me'moriy maket yaratish.
---	--	--

Kollej o'quvchilarini darsga qiziqtirish uchun, dars o'tish metodiga o'zgacha yondosha olish kerak. Yangi va qiziqarli ma'lumotlar bilan bolalarni tanishtirish, ularga ma'qul hamda kerakli bo'lgan yo'nalishda ularni yo'naltira olish o'qituvchining asosiy maqsadidir. Mening amaliy dars o'tish uchun tanlagan mazkur mavzuyim bolalarnipsixologik tomondan yaxshi o'rganishimga yordam beradi. Har bir o'quvchining shaxsiy fikrlarini eshitib uning dunyoqarashi, fikrlari va g'oyalarini bilib olish mumkin. Loyihani amalga oshirish jarayonida bolalar turli ma'lumotlarga ega bo'lib boradilar, bu ularning fikrlash doirasini yanada oshiradi. o'zaro bilim almashadilar va yanada rivojlanadilar. Bu ularga o'zlari egallamoqchi bo'lgan kasblari haqida chuqurroq bilimlarni egallashlariga yordam beradi. Hamjihatlikda loyihani amalga oshirish esa kelajakda ularni jamoa bo'lib ishlashlarida qo'l keladi. Jamoada ishlash insonlarning ish jarayonidagi eng qiziqarli va shu bilan birga eng qiyin vaziyatlaridan biridir. Kelajakda o'quvchilar shunday qiyin vaziyatga tushmasliklari uchun, o'qituvchi ularni yoshligidan hamjihat bo'lib, bir-birini eshitib ishlashga yo'naltirishi, o'zaro vujudga kelgan turli fikrlilikni to'g'ri bartaraf eta olishi lozim.

Didaktik tadqiqotlar mashg'ulot o'tkazishni dialektik jarayon sifatida o'rganadi. Unga ko'ra:

O'qitish metodlari tizimi dinamikada, harakatda, ta'lim tizimida yuz berayotgan barcha o'zgarishlarni hisobga olgan holda o'zgaradi, rivojlanadi, deb qaraladi.

Barcha metodlar birbiri bilan aloqador. Biri ikkinchisini to'ldiradi, biri ikkinchisiga bog'liq.

1. Dastlab, dars berish metodlarini tasniflashga an'anaviy jihatdan yondashilib, o'rganiladigan bilim manbalariga ko'ra guruhlariga ajratilgan. Bunday guruhlanishning ijrosi qadimgi falsafiy va pedagogik qarashlarga borib taqaladi. Bunday manbalar, qadimda uchta: amalda sinash, ya'ni praktika (tajriba), ko'rgazmali, og'zaki (so'z orqali) ifodalangan. Jamiyat taraqqiyoti tufayli keyinchalik unga kitob bilan ishlash qo'shildi. So'nggi 20 yil mobaynida hayotga, shuningdek, ta'limga shiddat bilan yangi metodlar, qog'ozsiz axborot manbai: videokompyuter tizimi kirib keldi.

2. Shunday qilib, hozirgi paytda o'rganiladigan bilim manbaalariga ko'ra, metodlar 5 guruhga bo'linadi, hamda qator usullarni o'z ichiga oladi:

1) Amalda sinash, tajriba metodi:

tajriba o'tkazish, amaliyot o'tkazish;

mashq qilish jarayonida qatnashish, mehnat, ishlab chiqarish.

2) Ko'rgazmali namoyish qilish metodi:

o'quvchi, talabalar tomonidan kuzatish, amaliyot o'tkazish.

3) Og'zaki so'z orqali ifodalanadigan metod:

tushuntirish, ongiga etkazish;

hikoya qilish;

o'zaro fikr almashuv;

suhbat o'tkazish;

yo'l – yo'riq, ko'rsatma berish;

ma'ruza;

munozara, mubohasa, bahs va boshqalar

4) Kitob bilan ishlash:

o'qish, o'rganish, tezda ko'rib chiqish;

tsitata keltirish va uning ustida ishlash, bayon yozish;

referat yozish, konspekt tuzish.

5) Video metod:

kompyuterda mashq, test echish;

nazorat o'tkazish;

internetda ishlash;

o'quv filmlarini tayyorlash va namoyish etish;

axborot texnologiyalariga asoslanib, ishlab chiqilgan dasturlar asosida kompyuterda iqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblash, ularga omillar ta'sirini o'rganish;

multimedia asosida taqdimot tayyorlash, namoyish etish va boshqa shu kabilarni qamrab oladi.

3. Pedagog olimlar (M.A. Danilov, B.P. Esipov) o'quv jarayonini tashkil qilish maqsadlari va uni amalga oshirish bosqichlariga ko'ra dars o'tish metodlarini quyidagi guruhlariga ajratadi:

bilimni egallash;

malaka va ko'nikmalarni shakllantirish;

olingan bilimni amalda qo'llash;

ijodiy faoliyat;

olingan bilimni mustahkamlash;

bilim, malaka va ko'nikmalarni tekshirish metodlari

Ta'lim berish (didaktika)ning asosiy tamoyillari quyidagilar:

Faollik tamoyili Inson ta'lim olishining haqiqiy, chinakam mohiyati o'zining aqliy faoliyati natijasida bilimning yangiyangi sirasrorlarini mustaqil ravishda anglab olishidir. Talaba, o'quvchi o'z harakati bilan fanlarni yaxshiroq

o'rganadi va o'zlashtiradi. O'quv jarayonini shunday tashkil qilish kerakki, ularning o'zlari fanga qiziqsin, uni bilishga harakat qilib, intilsin. Buning uchun o'quvchi talabalar darsga faol qatnashishi lozim.

Nazariya bilan amaliyotning bir-biri bilan bog'liqligi Nazariy bilim doim kasb hunar amaliyoti bilan bog'lanishi lozim. Amaliy ta'lim ham o'z navbatida nazariy bilimlarga asoslangan bo'lishi kerak.

Ko'rgazmalilik Bilimlarni iloji boricha ko'rgazmali va real hayotga yaqin tarzda taqdim etish tilning tushunarligini va ta'lim jarayonida audiovizual vositalardan foydalanishni, bevosita ish holatida va real ob'ektlarda o'qitishni talab qiladi. Darslar ko'rgazmali qurollar yordamida berilsa, o'quvchilarning o'zlashtirishlari osonlashadi.

Tushunarlik O'quv materialining mazmuni shunday tanlangan va tuzilgan bo'lishi kerakki, o'quvchilar uni o'zlaridagi bilimlar bilan bog'lay olishsin va uni tushunishda qiynalmasin. Ya'ni, o'quv materialining mazmuni, shuningdek, o'qituvchining tili va fikrlarini ifodalash usuli o'quvchitalabanning bilim saviyasiga mos kelishi lozim. Lekin bu ilmiy terminlardan foydalanilmaydi, degani emas.

Namunalardan foydalanish O'quv materialining mazmunini tushuntirish uchun har doim namunalarni tanlashga harakat qilish kerak. Yaxshi model, amaliyotdan olingan tipik misollar, turlicha mahsulotlar ham olingan natijaning sifati qanday bo'lishini aniq ko'rsatadi.

Ilmiylik O'quv materialining mazmuni haqiqiy va ilmiy jihatdan tasdiqlangan yoki ilmiy tadqiqotlar asosida sinalgan bo'lishi kerak. Shuningdek, fanning yangi yutuqlari va kashfiyotlarini o'zida aks ettirishi lozim. O'qituvchining taxminiga yoki sub'ektiv fikriga asoslangan material qo'llanilmasligi kerak.

Bilimlarni qo'llash O'quvchitalabalar olgan bilimlarini amalda qo'llay olishi kerak. Shuning uchun bu bilimlar qo'llanilgan va amaliy vaziyatda sinalgan bo'lishi zarur. Bunday amaliy vaziyatlar o'qituvchi tomonidan yaratilishi lozim.

Natijalarni mustahkamlash tamoyili O'qishdagi muvaffaqiyatlar tan olinishi va baholanishi kerak. Bu o'quvchi va o'qituvchi o'rtasida doimiy aloqa bo'lishini talab qiladi. Natijalar esa maxsus «Baholash varaqalari» da qayd qilinishi kerak. Didaktik tamoyillar o'qituvchi faoliyatining yo'lyo'rig'i sifatida xizmat qiladi, alohida olganda esa tushunarlik printsiptini qo'llab quvvatlaydi. O'qitishning asosiy qoidalar:

- tushunarlikdan – tushunarsizga;
- yaqindan uzoqqa;
- osondan qiyinga;
- aniqdan mavhumga;
- umumiydan hususiyga, umumlashtirilgandan yakkaga;
- xususiydan umumiyga.

Dars o'tishning uslubini tanlash quyidagilarga bog'liq:

1. O'qitilayotgan guruhning darsga tayyorgarlik darajasi;
2. O'rganiladigan predmet;
3. Darsda o'tiladigan mavzu;
4. O'tiladigan mavzuning mazmuni;
5. Dars o'tishda qo'llash mumkin bo'lgan texnik vositalarning mavjudligi va boshqalar.

Darsni qanday o'tish borasida aniq bir qarorga kelishda, asosiy mo'ljal olishda darsni nimaga qaratilganligi muhim ahamiyatga ega. Agar:

- maqsadga erishish mo'ljalga olinadigan bo'lsa, dars jarayonida qanday maqsadlarga erishish kerakligini aniq belgilab olinishi lozim;
- darsda qatnashadiganlar mo'ljalga olinsa, talabalar (o'quvchilar) guruhi kimlardan iboratligiga e'tibor qaratiladi;

- o'tiladigan mavzu, unga ajratilgan vaqt mo'ljalga olinsa, qanday o'quv materialini talabalar ongiga etkazish zarur va unga qancha vaqt ajratilganiga diqqat qaratiladi;

- o'quv vositalari mo'ljalga olinsa, qo'limizda qanday o'quv vositalari bor va ulardan qay darajada foydalanishimiz mumkinligini hisobga olamiz;

- talabalar (o'quvchilar)ning darsga faol yoki passiv qatnashuvi mo'ljalga olinsa, qanday dars o'tish uslublarini qo'llash kerakligini tanlaymiz;

- darsni tashkil etish mo'ljalga olinsa, qanday tashkiliy shartsharoitlar mavjudligini hisobga olamiz;

- o'zlashtirishni nazorat qilish mo'ljalga olinsa, qanday tartibda talabalar bilimi nazorat qilinadi va baholanadi, diqqat ana shunga qaratiladi

O'quv yurtlarida o'quvchitalabalarga ta'lim berish jarayonida real hayotda sinab ko'rilgan hamda o'zini oqlagan o'qitish shakllari: ma'ruza, seminar, maslahat, amaliyot darslari, laboratoriya ishlari, o'quv va ishlab chiqarish praktikasi, kurs ishi va bitiruv malaka ishi, auditoriyadan tashqari mustaqil ishlar, joriy, oraliq, yakuniy baholash, davlat attestatsiya komissiyasi imtihoni, turli konkurslar, olimpiadalar va boshqa shakllaridan hamda turli metodlaridan foydalaniladi.

Ta'lim berish jarayonida o'qitishning asosiy shakllari: auditoriyada va auditoriyadan tashqarida mashg'ulot o'tkazishga bo'linadi. Auditoriyada o'qishga ma'ruza, seminar darslari, amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya ishlari, maslahat darsi, joriy, oraliq, yakuniy baholash, davlat attestatsiya komissiyasining yakuniy baholashi kirsa, auditoriyadan tashqari o'qishga sayyor darslar, o'quv anjumanlari, ilmiyamaliy konferentsiyalar, davra suhbatlari, o'quv ishlab chiqarish amaliyoti, kurs ishi, bitiruv malakaviy ishi, auditoriyadan tashqari bajariladigan mustaqil ishlar kiradi.

Sanab o'tilgan o'quv tarbiya shakllarining hech biri universal emas. Biri ikkinchisining o'rnini bosa olmaydi. Shu bilan birga, ular bir biriga bog'liq, biri ikkinchisini mantiqiy ketma – ketligini taqozo etadi.

Dars o'tishning shakl va metodlari o'rtasidagi nisbat o'zgarib turadi. Yuqori kurslarda seminar darslarining va mustaqil ishlarning roli ortadi. O'quv mashg'ulotlarining barcha turlari talabalarni, bilishning eng yuqori bosqichi baholash darajasigacha ko'tarilishini ta'minlashdir.



Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, mening tanlagan mavzuyim hozirgi kunda o'zining dolzarbligi bilan ajralib turadi. "Oddiy bolalar maydonchasining qanday dolzarbligi bor? , bolalarga ochiq hava, do'stlar va bir nechta o'yinchoqlar bo'sa bo'ldi", - deydiganlar ham topiladi. Albatta barchaning o'z shaxsiy fikri bor. Buni hech kim birovdan tortib ola olmaydi.

Ammo bu fikrlar xatoligini va ularni o'zgartirish mumkinligini men ushbu loyihada asoslab berishga harakat qildim. Bolalarga faqatgina vaqt o'tkazish uchun joy emas, balki ularni aqliy va ma'naviy jihatdan rivojlanishi uchun ham alohida joy kerak. Aynan mana barcha narsaning jamlanmasi mening loyihamda ko'rsatib o'tildi. Loyihada men faqatgina bolalarga emas, ularnig ota-onalari, bob ova buvilari uchun ham qulay bo'lgan go'shalarni yaratdim. Bu kabi mavze ichidagi bolalar maydonchalari va kichik parklar aholiga estetik zavq bag'ishlaydi, shaharning chiroyiga yanada chiroy qo'shadi, shahar havosini tozalaydi va eng asosiysi odamlarni bir-biriga yaqinlashtiradi. Bunday joylarda dam olishga chiqqan odamlar o'zaro muloqotda bo'ladilar, o'z shahrining naqadar go'zal ekanligini televizorda yoki internet saytlarida emas o'z ko'zlari bilan ko'radilar.

Axborot texnologiyalari taraqqiy etgan XXI asrda insonlar faqatgina internet yoki telefon orqali emas o'zaro bir-birlari bilan ko'rishib ham qulay joylarda suhbatlasha olishlari, o'z vaqtlarini foydali o'tkazishlari mumkin. Bolalar maydonchasi deyilganda barchaning ko'z oldiga birinchi navbatda eski shinalardan yasalgan qurilmalar, kunduz kuni yaqinlashib bo'lmas darajada isib ketuvchi metal arg'imchoqlar keladi. Ammo ushbu loyiha insonlar va ularning hayolidagi bu tassavvurni butunlay o'zgartirib yuborishi mumkin. Gapim so'ngida shuni aytmoqchiman, yurtimiz kundan kunga rivojlanib bormoqda. Bu mustaqil yurtda eng asosiy e'tibor o'sib kelayotgan yoshlarga qaratilgan. Demak, bolalar yoshligidan ma'nan va jismonan baquvvat bo'lishlari uchun, ular eng kichik yoshidan boshlab go'zallikka oshno bo'lishlari kerak. O'z shaharini avaylab asrashlari shart. Bunda ularga shu kabi interaktiv povelyonlar va yangi uslubdagi bolalar maydonchalari yordam beradi. Chunki hech qaysi bola o'zining shirin bolalik hotiralari o'tkan go'zal maskanga tosh otmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Правила строительства детских площадок.
2. СНиП детских площадок.
3. УМУМИЙ ПСИХОЛОГИЯ. Психология мутахассислиги учун дарслик (Э. ҒОЗИЕВ)
4. www.ziyonet.uz
5. www.expert.psychology.ru
6. www.psychology.all.ru
7. www.psychology.net.ru
8. www.google.uz
9. www.pedagog.uz

	Binoning qavatlar eksplikatsiyasi	Xonal ar maydoni (kv.m)
No	1-qavat xonalar eksplikatsiyasi	
1	Qishki bolalar maydonchasi	100,0
2	Dam olish zonasi	17,5
3	Umumiy dam olish zonasi	62
4	Dam olish zonasi(erkaklar)	75
5	Dam olish zonasi (ayollar)	64
6	Qariyalar dam olish xonasi	70
7	To'garaklar xonasi	100
8	To'garaklar xonasi	160
9	Koridor	25
10	Bolalar ijodi galereyasi	70

	2- qavat xonalar eksplikatsiyasi	Xonal ar maydoni (kv.m)
1.	Foye	65
2.	Yo'lak	158
3.	Sport zal	84
4.	To'garaklar xonasi	48
5.	To'garaklar xonasi	40
6.	Dush va kiyim almashtirish xonasi	24
7.	Sport zal uchun anjom saqlash xonasi	15